


“TASDIQLAYMAN”  
O‘zbekiston Respublikasi  
adliya vaziri o‘rinbosari

 M. Ikramov

2023-yil 15-dekabr



SUOMI  
FINLAND



**Aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi  
nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini baholash  
yuzasidan tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom “O‘zbekistonda qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash” loyihasi doirasida O‘zbekistondagi bepul yuridik yordam ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar uchun aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish sohasida ularning 2023-yildagi faoliyatini baholash maqsadida tanlov (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov “O‘zbekistonda qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash” loyihasi doirasida O‘zbekistondagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (keyingi o‘rinlarda – BMTTD) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda Finlyandiya Tashqi ishlar vazirligi moliyaviy ko‘magida amalga oshiriladi.

3. Tanlov O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga (shu jumladan ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yoshlarga) nodavlat notijorat tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda – NNT) va yuridik klinikalar tomonidan birlamchi yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish, ushbu sohada ko‘rsatgan samarali faoliyati uchun NNT va yuridik klinikalarini rag‘batlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

4. Ushbu Nizomda belgilangan tartibda Tanlov g‘oliblari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jihozlari (keyingi o‘rinlarda – AKT jixozlari), shuningdek BMTTD va Adliya vazirligining sertifikatlari bilan taqdirlanadi.

5. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniadi:

**talabgor** – Tanlovda ishtirok etish istagini bildirib, ariza va ushbu Nizomga asosan o‘z faoliyati yuzasidan so‘ralgan ma’lumotlarni taqdim etgan NNT yoki yuridik klinika;

**ariza** – ushbu Nizomga muvofiq Tanlovda ishtirok etish uchun talabgor tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar va hujjatlar;

**Baholash komissiyasi** – Tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish, ko‘rib chiqish, baholash, g‘oliblarni aniqlash va g‘oliblarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshiruvchi organ.

## **2-bob. Talabgorlarga qo‘yiladigan talablar**

6. Talabgor Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Tanlovda ishtirok etish uchun ariza qabul qilish boshlanganligi to‘g‘risida e’lon qilingan vaqtida O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan NNTning tashkiliy-huquqiy shakllaridan birida yoki yuridik klinika sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lishi;

asosiy faoliyat yo‘nalishi aholiga birlamchi bepul yuridik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi;

2023-yil davomida (2023-yil yanvar oyidan Tanlovda ishtirok etish uchun ariza qabul qilish boshlanganligi to‘g‘risida e’lon qilingan vaqtida qadar) bepul yuridik yordam ko‘rsatish sohasida to‘liq faoliyat olib borgan bo‘lishi.

7. Quyidagilar Tanlovda ishtirok etishi mumkin emas:

iste’mol kooperativlari;

xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari;

siyosiy partiyalar;

diniy tashkilotlar;

O‘zbekiston Respublikasi Notariat palatasi va uning hududiy bo‘linmalari;

O‘zbekiston Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari, shuningdek, advokatlik tuzilmalari;

O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, shu jumladan viloyat va tuman kengashlari;

O‘zbekiston Savdo sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari.

### **3-bob. Tanlov yo‘nalishlari**

8. Talabgorlar 2023-yil davomidagi quyidagi yo‘nalishlarda olib borgan faoliyati natijalari bo‘yicha kompleks tahlil qilinadi va baholanadi:

yil davomida bepul yuridik yordam ko‘rsatishda qamrab olingan aholi soni, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar, yoshlarga ko‘rsatilgan bepul yuridik yordam soni haqidagi ma’lumotlar;

sayyor tartibda aholi punktlariga chiqib ko‘rsatilgan bepul yuridik yordam haqidagi ma’lumotlar;

masofadan turib, onlayn yoki ishonch telefonlari orqali ko‘rsatilgan bepul yuridik yordam soni haqidagi ma’lumotlar;

bepul yuridik yordam ko‘rsatishda shahar markazidan olisdagi chekka hududlardagi aholini qamrab olinganligi darajasini tasdiqlovchi ma’lumotlar;

ommaviy axborot vositalari va internet tarmog‘ida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ishlarda faollik darajasini tasdiqlovchi ma’lumotlar;

talabgorning bepul yuridik yordam ko‘rsatishda ishtirok etgan xodimlari haqidagi ma’lumotlar;

Agar mavjud bo‘lsa, talabgorlar bepul yuridik yordam ko‘rsatish faoliyatida faolligini tasdiqlash uchun mazkur ma’lumotlardan boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlar (bepul yuridik yordam ko‘rsatishda yosh kadrlarni, shu jumladan yurisprudensiya sohasida ta’lim olayotgan talabalarni jalb qilganlik, bepul yuridik yordam ko‘rsatishda sarflangan davlat yoki donorlar mablag‘lari haqidagi ma’lumotlar, jamiyat va davlat tomonidan e’tirof etilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar, sertifikat, tashakkurnomalar nusxasi, va hokazo) taqdim qilishi mumkin.

9. NNT bo‘lgan talabgorlardan uchtasi Tanlovda baholash natijalariga ko‘ra, “Yilning eng faol bepul yuridik yordam ko‘rsatgan nodavlat notijorat tashkiloti” nominatsiyasi bo‘yicha 1, 2 va 3-o‘rinlar uchun taqdirlanadi.

Yuridik klinika bo‘lgan talabgorlardan uchtasi “Yilning eng faol yuridik klinikasi” nominatsiyasi bo‘yicha 1, 2 va 3-o‘rinlar uchun taqdirlanadi.

### **4-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi**

10. Tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

a) ishtirok etish uchun talabgorlardan arizalarini qabul qilish boshlanganligi to‘g‘risida e’lon berish;

b) arizalarni qabul qilish (davomiyligi e'londa ko‘rsatiladi);

d) arizalarga ko‘ra talabgorlar faoliyatini tahlil qilish va baholash;

e) natijalarni e’lon qilish va g‘oliblarni taqdirlash to‘g‘risida xabardor qilish;

f) g‘oliblarni taqdirlash tadbirini o‘tkazish, ularga sertifikat AKT jihozlarini taqdim qilish.

11. Tanlovda ishtirok etish uchun talabgor arizalarni qabul qilish boshlanganligi haqidagi e'londa ko'rsatilgan elektron pochta manzillariga ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan ariza, shuningdek unga ilova qilinadigan hujjat va ma'lumotlarni o'zbek yoki rus tillarida taqdim etadi.

12. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

NNTning davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi (yuridik klinikalar uchun yuridik klinika tashkil etilganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi);

NNTning ustavi nusxasi (yuridik klinikalar uchun ichki nizom nusxasi);

ushbu Nizomning 2-ilovasidagi 1, 2 va 3-jadvallarga muvofiq shaklda talabgorning 2023-yildagi faoliyati haqidagi ma'lumotlar;

talabgor arizasini asoslash uchun zarur deb hisoblagan boshqa ma'lumot va hujjatlar (agar mavjud bo'lsa).

13. Talabgorlarning arizalarini baholash uchun ushbu Nizomning 3-ilovasida belgilangan tarkibda Baholash komissiyasi tashkil etiladi.

Baholash komissiyasining har bir a'zosi talabgorlarning arizalari asosida ular faoliyatini ushbu Nizomning 4-ilovasida belgilangan mezonlar asosida umumiy 100 ballik tizimda baholab, baholash shaklini to'ldiradi.

14. Baholash komissiyasining har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar umumlashtirilganda eng yuqori ball to'plagan uchta NNT va uchta yuridik klinika 1, 2, 3-o'rinalar bo'yicha g'olib deb hisoblanadi.

15. Talabgorlar tomonidan teng miqdordagi ball to'plangan taqdirda, quyidagilarga ustunlik beriladi:

chekka hududlardagi aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatishda faol bo'lgan talabgorlar;

bepul yuridik yordam ko'rsatishda tajribali kadrlar bilan bir qatorda yosh kadrlar, shu jumladan yurisprudensiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni jalgilishda faol bo'lgan talabgorlar;

bepul yuridik yordam ko'rsatishda bir nafar xodim tomonidan o'rtacha nechta bepul yuridik yordam ko'rsatilganligi darajasi (boshqa talabgorlarga nisbatan);

o'z faoliyatida jamiyat va davlatning e'tirofiga erishgan talabgorlar.

## **8-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

16. Tanlov g'oliblarini taqdirlash uchun umumiy byudjet 9 900 (to'qqiz ming to'qqiz yuz) AQSH dollarini tashkil etadi.

17. Tanlov g'oliblarini taqdirlash uchun qaysi turdag'i AKT jixozlarini xarid qilish masalasi umumiy byudjetdan kelib chiqib, Baholash komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Baholash komissiyasi tomonidan belgilangan ro‘yxatga ko‘ra BMTTDning O‘zbekistondagi Xaridlar departamenti tegishli AKT jixozlarini xarid qilish choralarini ko‘radi.

18. Baholash natijalariga ko‘ra g‘olib talabgorlar haqidagi ma’lumotlar Adliya vazirligining hamda BMTTDning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtiriladi.

19. Tanlov g‘oliblari Adliya vazirligi binosida vazirlik rahbariyati va BMTTD vakillari ishtirokida AKT jixozlari va sertifikat bilan taqdirlanadi.

Taqdirlash marosimi o‘tkaziladigan kun, vaqt va joy haqida g‘oliblarga qo‘srimcha ravishda xabar beriladi.

### **9-bob. Yakuniy qoidalar**

20. Tashkiliy organ talabgorlarning Tanlovda ishtirok etishi munosabati bilan qilgan xarajatlarini qoplamaydi.

21. Talabgor arizasida ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga Tashkiliy organ tomonidan yuborilgan yuridik ahamiyatga ega xabarlarni olmaganlik (tanishmaganlik) oqibatlari xavfini o‘z zimmasiga oladi.

22. Tanlov tashkilotchilari Talabgorlarning arizalarini ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida xabardor qilish va Tanlovda g‘olib bo‘limganlik sabablarini tushuntirish majburiyatini olmaydi.

23. Talabgorlar Tanlovda ishtirok etish uchun ariza taqdim etish orqali Tashkiliy organga Tanlovning shaffofligi va ochiqligini ta’minlash maqsadida ushbu arizaning bir qismi sifatida taqdim etilgan barcha ma’lumotlardan foydalanish huquqini beradi.

Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini baholash yuzasidan tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga  
1-ilova



**SUOMI  
FINLAND**



**“O‘zbekistonda qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash”  
loyihasi doirasida aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi  
nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini baholash yuzasidan  
tanlovda ishtirok etish bo'yicha**  
**ARIZA SHAKLI**

<b>TALABGOR HAQIDAGI UMUMIY MA'LUMOTLAR</b>	
<b>Talabgorning tashkiliy shakli</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>◦ NNT (<i>NNTning tashkiliy huquqiy shakli ham ko'rsatiladi</i>)</li> <li>◦ Yuridik klinikalar</li> </ul>
<b>Talabgorning nomi:</b>	<i>davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga muvofiq, ariza beruvchining to'liq nomini ko'rsating/yuridik klinikalar uchun qaysi tashkilot tarkibida tashkil etilganligi to'liq nomini ko'rsating</i>
<b>Talabgorning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (tashkil etilgan )sanasi</b>	<i>davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga muvofiq, ariza beruvchining ro'yxatga olingan sanasini ko'rsating</i>
<b>Talabgorning asosiy faoliyat sohasi (Ustavga muvofiq, yuridik klinikalar uchun ichki nizomga muvofiq)</b>	
<b>Talabgor tomonidan bepul yuridik yordam ko'rsatilgan hudud(lar)</b>	<i>(viloyat, tuman)</i>
<b>Talabgorning bepul yuridik yordam ko'rsatishda ishtirok etgan xodimlari soni</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. bevosita bepul yuridik yordam ko'rsatgan xodimlar soni;</li> <li>2. bepul yuridik yordam ko'rsatishda ishtirok etgan boshqa xodimlar sonini (texnik xodimlar va boshqalar) ko'rsating.</li> </ol>
<b>Bepul yuridik yordam ko'rsatishda jalb etilgan valantyorlar (talabalar) soni (agar mavjud bo'lsa)</b>	<i>bepul yuridik yordam ko'rsatishda jalb etilgan volontyorlar (talabalar) sonini aniq ko'rsating.</i>
<b>Bepul yuridik yordam ko'rsatishda</b>	<i>hamkorlar nomini to'liq ko'rsating</i>

ko‘maklashgan mahalliy  
va xalqaro hamkorlar

### TALABGORNING ALOQA MA’LUMOTLARI

Arizachining yuridik manzili:

< viloyat, tuman (shahar), ko‘cha, uy raqami va boshqalar >

Arizachining amaldagi manzili (agar yuridik manzilidan farq qilsa):

< viloyat, tuman (shahar), ko‘cha, uy raqami va boshqalar >

Elektron pochta manzili:

Telefon raqami: +998

Telegram orqali bog‘lanish uchun havola (link): @\_\_\_\_\_

Veb-sayt (agar mavjud bo‘lsa): \_\_\_\_\_

### TALABGORNING RAHBARI HAQIDAGI MA’LUMOTLAR

F.I.O.: \_\_\_\_\_

Manzil: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili:

Telefon raqami: +998

Telegram orqali bog‘lanish uchun havola (link): @\_\_\_\_\_

### ARIZAGA ILOVALAR

1. NNTning davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi (yuridik klinikalar uchun yuridik klinika tashkil etilganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi);

2. NNTning ustavi nusxasi (yuridik klinikalar uchun ichki nizom nusxasi);

3. Talabgorning 2023-yildagi faoliyati haqidagi ma’lumotlar;

4. Boshqalar

5. ...

Men ushbu shaklda taqdim etgan ma’lumotlarim to‘liq va to‘g‘ri ekanligini, Aholiga bepul yuridik yordam ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar uchun tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom talablari bilan tanishib chiqqanligimni hamda tashkilotim (yuridik klinika) nomidan ish yuritish huquqiga ega ekanligimni tasdiqlayman.

Sana: \_\_\_\_\_

Talabgorning rahbari F.I.O: \_\_\_\_\_

Imzo: \_\_\_\_\_

Muhr (agar mavjud bo‘lsa)

Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyati bilan shing'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini baholash yuzasidan tanlov o'iazizish tartibi to'g'risidagi nizomiga  
2-ilova

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
	I-jadval														
	Shundan														
2023-yilda ko'rsatigan bepul yuridik yordamning umumiy soni	Yuridik yordam ko'rsatish usuli bo'yicha							Shaxshar doirasasi bo'yicha							
	sayyor tartibda	onlayn	istonch telefonlari orgali	ayollarga	ayollarga	yoshiharga	nogironligi bo'lgan shaxslarga	og'zaki boshqalarga	yozma hujiyatlar tayyorlash yoki maslahatilar berish orqali	yo'zma tushuntirishlar berilgan mablag'lar	Davlat tomoniidan berilgan mablag'lar	Xalqaro tashkilotlar yoki boshqa donor mablag'lar	Bepul yuridik yordam ko'rsatish uchun sarflangan mablag'lar bo'yicha*		

Eslama:

- a) 2,3,4,5-astunlar yig'indisi I-astunga teng;
- b) 6,7-astunlar yig'indisi I-astunga teng;
- c) 12, 13-astunlar yig'indisi I-astunga teng;
- d) 14, 15-astunlar I-astunga teng bo'lishi kerak.

\* usibbu ma'lumotlar agar mavjud bo'lsa tegrim etiladi

*Aholiga bepul yuridik yordam ko 'rsatish faoliyati  
 bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat  
 tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini  
 baholash yuzasidan tanlov o 'tkazish tartibi  
 to 'g'risidagi nizomga  
 2-ilova*

*2-jadval*

<b>Hudud nomi</b>	<b>Bepul yuridik yordam soni</b>	<b>Shundan</b>	
		<b>Viloyat markazlarida</b>	<b>Viloyat markazlaridan tashqaridagi tuman (shahar)larda</b>
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>			
<i>Andijon viloyati</i>			
<i>Buxoro viloyati</i>			
<i>Jizzax viloyati</i>			
<i>Qashqadaryo viloyati</i>			
<i>Navoiy viloyati</i>			
<i>Namangan viloyati</i>			
<i>Samarqand viloyati</i>			
<i>Sirdaryo viloyati</i>			
<i>Surxondaryo viloyati</i>			
<i>Toshkent viloyati</i>			
<i>Toshkent shahri</i>			
<i>Farg'ona viloyati</i>			
<i>Xorazm viloyati</i>			

Aholiga bepul yuridik yordam  
 ko'rsatish faoliyati bilan  
 shug'ullanuvchi nodavlat notijorat  
 tashkilotlari va yuridik klinikalar  
 faoliyatini baholash yuzasidan  
 tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi  
 nizomga  
 2-ilova

*3-jadval*

**Aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ishlar**

OAVlarda chiqishlar soni	<i>shundan</i>				
	televideniya	radio	ijtimoiy tarmoqlar	elektron nashrlar	boshqalar

Aholiga bepul yuridik yordam  
ko'rsatish faoliyati bilan  
shug'ullanuvchi nodavlat notijorat  
tashkilotlari va yuridik klinikalar  
faoliyatini baholash yuzasidan  
tanlov o'tkazish tartibi  
to'g'risidagi nizomga  
3-ilova

## BAHOLASH KOMISSIYASI TARKIBI

- Zaripov Fazliddin Shamsiddin o'g'li** – Adliya vazirligi Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar boshqarmasi bo'lim boshlig'i;
- Yusupova Yoqutxon Satvoldi qizi** – Adliya vazirligi Notariat, advokatura va huquqiy xizmatlar boshqarmasi bosh maslahatchisi
- Nuraliyev Shohruh Shavkat o'g'li** – BMTTD “O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash” loyihasi xodimi.

*Izoh: Baholash komissiyasi a'zolari Tanlov o'tkazilayotgan vaqtida belgilangan lavozimdan ozod etilgan hollarda ushbu lavozimni yangi egallagan shaxs yoki ushbu lavozimga teng lavozimdagi boshqa shaxs Baholash komissiyasi tarkibiga kiritiladi.*

Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish faoliyatini bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari va yuridik klinikalar faoliyatini baholash yuzasidan tarlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga 4-ilova

## TALABGOR FAOLIYATINI BAHOLASH SHAKLI

Baholash komissiyasi a'zosining F.I.O.: \_\_\_\_\_

Ariza raqami \_\_\_\_\_

T/r	Baholash mezonining nomi	Ballning eng yuqori miqdori	Baho	Baho bo'yicha tushuntirish (izoh)
1.	qamrab olingan aholi soni bo'yicha	0-15		
2.	ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlarga bepul yuridik yordam ko'rsatilishi bo'yicha	0-15		
3.	chekka hududlarda bepul yuridik yordam ko'rsatilganligi bo'yicha	0-15		
4.	sayyor tartibda aholi punktlariga chiqib, bepul yuridik yordam ko'rsatilganligi bo'yicha	0-15		
5.	masofadan turib, onlayn yoki ishonch telefonlari orqali ko'rsatilgan bepul yuridik yordam ko'rsatilganligi bo'yicha	0-10		
6.	onmaviy axborot vositalari va internet tarmog'iда huquqiy	0-10		

	savodxonlikni oshirishga qaratilgan ishlarda faolligi bo'yicha			
7.	yozma hujjatlar tayyorlash, yozma tushuntirishlar berish orqali yuridik yordam ko'rsatilganligi bo'yicha	0-10		
8.	1 – 7 ustunlarda nazarda tutilganlardan tashqari bepul yuridik yordam ko'rsatishda qo'shimcha faoliytkni tasdiqlovchi hujjatlarning mayjudligi bo'yicha	0-10		

**Umumiy ball:**

Ushbu talabgorni Tanlovda \_\_\_\_\_

(Nominatsiya/o'rini)

uchun g'olib deb topish uchun tasdiqlash

hisoblayman.

Sana:

Imzo: \_\_\_\_\_

(maqsadga muvofiq yoki maqsadga muvofiq emas deb)